



**Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi oliy hamda kasbiy ta'lim muassasalarida tahsil oluvchi talaba va o'quvchilar o'rtasida “Amir Temur vorislari” harbiy-sport spartakiadasi musobaqasini o'tkazish tartibi to'g'risidagi NIZOM**

**I. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi (*keyingi o'rinlarda – Vazirlik deb yuritiladi*) tasarrufidagi oliy ta'lim muassasalari hamda kasbiy ta'lim muassasalarida tahsil oluvchi talaba va o'quvchilar o'rtasida “Amir Temur vorislari” harbiy-sport spartakiadasi (*keyingi o'rinlarda – Musobaqa deb yuritiladi*) tashkil etish va o'tkazish tartibini belgilaydi.

2. Musobaqa tashkil etishdan asosiy maqsad – talaba-o'quvchilarni o'z xalqiga, Prezidentiga va Vataniga sadoqat hamda yuksak harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, sportning harbiy-texnik va amaliy turlarini ommalashtirishdan iborat.

**II. Musobaqani o'tkazish va tashkil qilish tartibi**

3. Musobaqa Vazirlik huzuridagi Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi tomonidan tashkil etiladi. Musobaqada Respublika va Xalqaro sport musobaqalarida ishtirok etmagan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan Vazirlik tasarrufidagi oliy ta'lim muassasalari hamda kasbiy ta'lim muassasalarining jami 5 nafargacha talaba-o'quvchilaridan tashkil topgan jamoalari ishtirok etadi.

4. Musobaqa 3 **bosqich**da o'tkaziladi:

**birinchi bosqich** – guruhlar o'rtasida saralash bosqichi har yili mart-aprel oylari davomida;

**ikkinchi bosqich** – fakultetlararo (*kasbiy ta'lim muassasalarida, ta'lim muassasasi yo'nalishlararo*) bosqichi Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan ta'lim muassasalari jamoalari o'rtasida har yili aprel-may oylari davomida;

**uchinchi bosqich** – yakuniy ta'lim muassasasi kurslararo (*har bir fakultet 1-5 kurs talabalari yoki o'quvchilari o'rtasida yo'nalishlarning 1-3-bosqich*) bosqichi har yili may-iyun oylari davomida o'tkaziladi.

5. Musobaqaning barcha bosqichlarini o'tkazish bo'yicha ishchi guruhlarini tuziladi hamda ishchi guruhlariga ta'lim muassasalari rektorlari, direktorlar (Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektorlari, direktor o'rinbosarlari) mas'ulligida Hakamlar hay'ati tarkibi shakllantiriladi.

6. Musobaqaning 1- va 2-bosqichlarida Hakamlar hay'ati xulosasiga ko'ra g'olib bo'lgan faqat 1 ta jamoaga keyingi bosqichda ishtirok etish uchun yo'llanma beriladi.

### **III. Musobaqa shartlari va baholash mezonlari**

7. Musobaqaning barcha bosqichlari mas'ul ta'lim muassasalari tomonidan belgilangan sport majmualarida o'tkaziladi.

Musobaqa **2 ta shart** asosida baholanadi.

#### **1-shart o'quv granatasini uzoqlikka uloqtirish sharti;**

Ushbu shartdagi mashqni bajarish joyining uloqtirish marrasi, yo'lagi chiziq va belgilar hamda 30, 40, 50, 60 va h.k metr masofa ko'rsatkichlari bilan jihozlanadi. Ishtirokchi mashqni F-1 o'quv granatasini (600 gramm) uloqtirish orqali bajaradi.

Sport hakami tomonidan ishtirokchilarga mashqni bajarish sharti va xavfsizlik qoidalari yetkaziladi;

ishtirokchilar mashqni navbat bilan bajaradi;

ishtirokchiga 1 marotaba uloqtirish imkoni beriladi;

ishtirokchi sport hakamining "Ruxsat" buyrug'idan keyin mashqni bajarishga kirishadi. Granata uloqtirgandan keyin ishtirokchi tana muvozanatini saqlab qolishi va granata yo'lak (koridor) ichiga tushishi kerak;

agar granata tasodifan qo'ldan chiqib ketsa, ishtirokchi marra chizig'ini bossa yoki tana muvozanatini yo'qotib undan o'tib ketsa, granata yo'lak (koridor) chiziqlarining tashqi tomoniga tushsa, aynan shu natija hisobga olinmaydi va takroriy uloqtirishga ruxsat berilmaydi;

ishtirokchi yoki jamoaning boshqa a'zosi tomonidan xavfsizlik qoidalari talablari buzilganda uloqtirish natijasi hisobga olinmaydi. Har bir ishtirokchining necha metr masofaga uloqtirgani qo'shib chiqilib umumiy ball chiqariladi.

#### **2-shart turnikda tortilish sharti;**

2-shartdagi mashqni bajarishda qo'l kaftlari turnikda oldinga qaratilgan holda ushlanib, qo'llar parallel uzatilgan holda tutiladi, tana bir oz bukilgan, oyoq to'g'ri tushirilgan, oyoq uchi to'liq pastga uzatilib, tovonlar juft tutilgan holatda bajariladi.

Qo'llar bukilib, tana yuqoriga ko'tariladi, bunda jag' (iyak) turnik ustiga to'liq chiqarilgan holat qabul qilinadi.

Qo'llar yana to'liq uzatiladi, tana bir maromda pastga tushirilib, dastlabki holatga qaytiladi. Tananing osilgan holati 3 soniyadan ko'p bo'lmagan vaqt davomida saqlanadi. Juft tutilgan oyoqlarni 45<sup>0</sup> gacha bukishga ruxsat beriladi.

Tanani siltash, oyoqni old-orqaga tebratish, oyoqlarni chalishtirish, bir qo'lda osilib olish amallari taqiqlanadi. Ushbu shart har bir turnikda tortilishiga qarab 1 balldan beriladi (masalan 15 ta tortilsa 15 ball bilan baholandi).

8. Ushbu 2 ta shartlarda jamoa a'zolarining har birlari ishtirok etadi va jamoaning umumiy yig'ilgan ballari jamoa soniga nisbatan bo'lingan holda g'olib

jamo'a aniqlanadi.

9. Yakuniy natijadan keyin ballar teng kelib qolgan taqdirda Hakamlar hay'ati tomonidan sportga oid qo'shimcha shart berilib g'olib aniqlanadi.

#### **IV. Hakamlik qilish va apellyatsiya berish tartibi**

10. Musobaqada hakamlik qilish maqsadida sport hakamlari tarkibi – bosh sport hakami va sport hakamlari tayinlanadi.

Sport hakamlari tarkibi:

musobaqa va shartlarni odilona, shaffoflik bilan baholaydi;

har bir jamoa va ishtirokchining musobaqa va shartlarda ko'rsatgan natijalarini bayonnoma orqali rasmiylashtiradi;

g'olib jamoa va ishtirokchilarni belgilaydi;

apellyatsiya shikoyatlari 3-kun muddatgacha beriladi va bir hafta muddatda ko'rib chiqadi.

Musobaqalarni tashkil etish va o'tkazish tartibi, joylari, vaqti va ketma-ketligi belgilanadi.

Bosh sport hakami sport hakamlari tomonidan natijalarning to'g'ri baholanishi hamda o'yinlarning shaffoflik bilan o'tkazilishiga mas'uldir. Bosh sport hakami o'yinlar boshlanishidan oldin musobaqa o'tkaziladigan joylarni, ularning jihozlanganligi va tayyorligini tekshiradi, muammo yoki kamchiliklar aniqlansa, ularni bartaraf etish bo'yicha tegishli choralar ko'radi.

O'yinlar shartlarini qo'pol ravishda buzgan ishtirokchilarni sport hakamlari tarkibi a'zolari bilan kelishgan holda, o'yinlardan chetlatish masalasini hal etadi.

Sport hakamlari tomonidan o'yinlarning to'g'ri o'tkazilishini, natijalarning shaffoflik bilan baholanishini nazorat qiladi.

O'yinlar davomida musobaqalarni mazkur Nizomga muvofiq o'tkazilishini, natijalarning haqqoniy va shaffof tarzda baholanishini hamda g'oliblarni aniqlaydi.

O'yinlarni o'tkazish joylari, sport (maxsus) jihozlari va vositalari tayyorgarligini ta'minlaydi.

Ishtirokchilarga o'yinlar shartlarini, xavfsizlik qoidalarini yetkazadi, bu borada tushuntirish ishlarini olib boradi va ulardan musobaqa shartlari to'g'ri bajarilishini talab qiladi.

11. O'yinlarni o'tkazish davomida jamoa rahbarlari va a'zolariga quyidagilar taqiqlanadi:

sport hakami ishiga aralashish;

sport hakamining qaroriga qarshilik ko'rsatish va unga bo'ysunmaslik;

sport hakami bilan kelishilmagan tarzda musobaqa yoki shartlarni bajarish vaqtida o'z jamoasiga yoki ishtirokchiga mazkur Nizomda ko'rsatilmagan qoidalarga zid ravishda yordam ko'rsatish;

musobaqa yoki shartlarni bajarishning belgilangan joyida sport hakamining ruxsatisiz bo'lish;

musobaqa yoki shartlarni bajarishga jamoa a'zosi bo'lmagan shaxslarni jalb etish. O'yinlarda oliy ta'lim muassasasida tahsil olmaydigan talaba-yoshlarning ishtirok etishi qat'iy taqiqlanadi va mazkur qoidaga rioya qilmagan jamoa musobaqadan chetlashtiriladi.

## **V. Musobaqa ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari**

12. Musobaqa ishtirokchilari quyidagilarga majbur:

musobaqalar talablarini bilish va unga so'zsiz rioya qilishga;

o'yinlar davomida o'zini munosib tutish va boshqalarni ham nomunosib xatti-harakatlarga yo'l qo'ymasligini ta'minlashga;

o'yinlarni o'tkazish joyida belgilangan kiyimda bo'lishga;

o'yinlar ishtirokchilari va sport hakamlariga xushmuomala munosabatda bo'lishga;

zarur hollarda shaxsini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etishga;

sport hakamlarining ko'rsatmalarini so'zsiz bajarishga;

o'yinlar davomida o'rnatilgan kun tartibi va boshqa tartib-qoidalariga, musobaqalar shartlari va xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya etishga.

## **VI. G'oliblarni taqdirlash**

13. Musobaqaning 1- va 2-bosqichida ishtirok etgan barcha jamoa a'zolariga ta'lim muassasalarining faxriy yorliqlari topshiriladi.

14. Musobaqaning yakuniy 3-bosqichida 1-o'rin g'olibligini qo'lga kiritgan jamoaning har bir a'zosi ta'lim muassasalarining faxriy yorliqlari va qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlanadi.

## **VII. Yakuniy qoidalar**

15. Ishtirokchilar tomonidan mazkur Nizomda belgilanmagan xatti-harakatlarni amalga oshirish taqiqlanadi. Xavfsizlik qoidalari va o'rnatilgan kun tartibiga rioya qilmagan jamoalar o'yinlardan chetlashtiriladi.

16. Musobaqa davomida o'rnatilgan kun tartibi va intizomni buzgan jamoalarga jarima ballari beriladi.

17. Jamoa a'zolarining xavfsizlik qoidalariga rioya etishlari hamda har bir musobaqa shartlarini bajarishiga tayyorgarligi uchun javobgarlik jamoa rahbariga yuklatiladi.